

## RAHBAR AYOLLARDA ISH BILAN BOG'LIQ STRESSLARNI YENGISHNING IJTIMOIY PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

**Akbarova Malohatoyimposhsha Saidto'ra qizi**

*O'zbekiston Davlat Jismoniy Tarbiya va Sprot Universiteti farg'ona filiali .  
(O"zDJTSU) o'qituvchisi.*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada hozirgi davrda rahbar ayollarning o'rni va ularni ish bilan bog'liq sterslariga qarshi kurashi haqida so'z boradi.*

**Kalit so'zlar.** *Ayollar, rahbar, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy, faoliyat, psixologiya, stress, jamoa.*

Zamonaviy O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligini yanada oshirish, mamlakatda kechayotgan tub islohotlar jarayonida xotin-qizlarning faol ishtirokini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvidagi faol ishtirokini ta'minlash masalalari dolzarb ahamiyatga ega bo'lmoqda. Bu borada, rahbar ayol imijini oshirish hamda ushbu jarayon bilan bog'liq masalalar tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Bizning zamonamizda, ilgarigidek, nafaqat erkaklar, balki ayollar ham rahbar va yetakchi bo'lishadi. Ayol lider - bu tanish hodisa va endi bir necha yil oldin bo'lgani kabi ajablantirmaydi. Va, albatta, ayol liderni erkak liderdan ajratib turadigan ba'zi psixologik xususiyatlar mavjud. Ayollar rahbarlarga, menejerlarga xos bo'lgan stereotiplarni buzadi, biznes hayotiga yangi xususiyatlar va o'zgarishlar kiritadi.

Ayol bu hayot. Usiz hech narsa butun emas. Qayga boqmang uning husniga, latofatiga hech bo'lmasa u yaratgan go'zallikka ko'zimiz tushadi. U bilan uy quvonchlarga to'la, u bilan farzandlar baxtli, u bilan olam charog'on. Dunyoda hech narsa yo'qliki, uni ayol bajara olmasa. Mazzali taom deysizmi, uy yumushlarimi yoki bola tarbiyasi, o'qituvchilik, hamshiralik, hamma-hamma sohada ayollar abjir.

Ayol kishi bir tarafdan qaraganda nozik xilqat bo'lsa boshqa bir tarafdan qaralsa, juda ko'p ishlari muvafaqiyat bilan bajaruvchi yaxshi ish boshi hamdir. Bunga biz tarixdan ham ko'p bora guvoh bo'lib kelmoqdamiz. Qadimgi tarix ham ona urug'i davri ya'ni matriarxatdan boshlangan. Bunda qarindoshlar ona tarafdan yaqinlar bilan birlashgan. Agar yaqin o'tgan tarixga nazar solsak, albatta, Turon xalqlarining ahamoniylar bosqiniga qarshi kurashiga rahbarlik qilgan jasur ayol sarkarda To'maris haqida o'yaymiz. Tarixdan barchamizga ma'lumki, To'maris katta jasoratlar ko'rsatgan. U o'z qo'rmasligi va vatanparvar ekanligini o'z xalqi ya'ni massagetlarni dushmanlardan saqlab qoladi. Bu yo'lda u yaqin insonlari, hatto o'z farzandini ham yo'qotadi. Natijada u to'xtatib bo'lmas kuchga aylanadi. Dushmanning boshini olib, o'ziga yarasha jazolaydi. Mana, tarix shohidimiz, ayol - ona! U farzandi uchun har narsaga tayyor.

Hozirgi zamon rahbari o'zining ijtimoiy-psixologik qarashlari va ma'nnaviy dunyosi bilan o'tmishdoshlaridan keskin farq qiladi. Ayniqsa, butun jahonda globallashuv jarayonlari ketayotgan bir davrda jamiyatni demokratlashtirish va

modernizatsiyalash jarayoni rahbardan o'z zimmasidagi mas'uliyatni chuqur his qilishni, faoliyat jarayonida zamonaviy va an'anaviy tamoyillariga mos ravishda jamoani boshqarishni, yuksak mahoratga ega bo'lishni talab qilmoqda. Albatta, yuksak e'tibor, izchil islohoatlар, barqaror taraqqiyot, yorqin istiqboldan ko'zlangan maqsad kadrlarni tanlash, joy-joyiga qo'yish ishiga har jihatdan bog'liq. Zotan, rahbarlik ham qobiliyat. Kishi ilmli bo'lgani bilan rahbarlikka xos qobiliyati bo'lmasa, u jamoani o'z orqasidan ergashtira olmaydi, aksincha, jamoani boshi berk ko'chaga kiritishi hech gap emas. Rahbarda ham bilim, ham tashkilotchilik xususiyati bo'lmog'i lozim.

Insonlarning ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar, ya'ni u xodim yoki rahbar bo'ladimi ularning mehnat faoliyatiga ta'sir ko'rstatuvchi ichki va tashqi omillar har doim topiladi. Bu omillarning vujudga kelishi va ularning ta'sir darajasi ijobiy yoki salbiyligi har bir insonning o'ziga hamda yonidagi sherigi, jamoadoshi va xodimlariga bog'liq bo'ladi. Gap shundaki har qaysi odam tug'ilgandan to ma'lum ijtimoy darajasigacha o'zida shu davrgacha mujasamlashtirgan psixologik refleks, temperament va tipologik xususiyatlari hamda turli qamrovga ega aqliy ko'nikmalarini, bilimlarini xatti-harakatlari davomida namoyon qilib boradi. Bu fikrlardan anglashiladiki o'z-o'zida asosiy e'tibor doimgidek rahbar shaxsiga qaratiladi.

Raxbar psixologiyasi, boshqaruv qobiliyati, uslubi, muomla maromi, shaxslararo munosabatlar, ijtimoiy treninglar ishbilarmonlik o'yinlari, fikrlar jarangi bo'yicha rahbar kadrlarga umumiyl tushuncha, shuningdek amaliy ko'rsatma berish zaruriyati bir talay ehtiyojlari negizidan kelib chiqadi. Bizningcha, rahbarlik lavozimiga mukammal shaxsiy fazilatlarga, mustahkam milliy xarakterga, boshqaruvchanlik qobiliyatiga, muayyan muomla maromiga, g'oyaviy siyosiy etiqodga, milliy qiyofa, milliy his tuyg'ular, ananalar, rasm rusmlarni o'zlashtirishga ega bo'lgan mutaxassislar o'tishlari lozim. Toki ijtimoiy taraqqiyot ularning izmida ekanligini tushunib etishsinlar. Bizningcha rahbar kadrlarni zamon talabi darajasida tayyorlash uchun maxsus reja dastur uslubiy vositalar, maxsus jihozlangan zamonaviy labaratoriyalari mavjud bo'lgan o'quv yurtlarini ochish maqsadiga muofiq. Bu erda monitor tizimini amalga oshirish, milliy mentoletetning ifodalanishi, g'oyalalar bankiga ega bo'lish imkoniyati mavjuddir. Faqat shu yo'l bilan konstitutsiyaga xiyonat-bu vatanga, xalqa xiyonat ekanligini har bir rahbar ongiga singdirish mumkin.

Biz bu fikrlarni nega isboti bilan keltirdik? Albatta, ayol kishi ish jarayonida rahbarlik lavozimida faoliyat ko'rsatganda yoki rahbar yonida o'rinxbosar bo'lgan ish jarayonlarining samaradorligi oshishini barchamiz bilamiz. Bunda ular boshqarish ya'ni faoliyat yuritish vazifasini bajaradilar. Boshqaruv - tashkilot maxsus organining funksiyasi bo'lib, eng kam vositalar (vaqt, kuch, zahira) sarflagan holda eng yuqori natijaga erishish bo'yicha aniq tashkil etilgan faoliyatdir. [2:58] Bu jarayon bevosita yoki bilvosita rahbarning qo'lida bo'ladi. Rahbar quyidagi 7 ta funksiyani bajaradi:

1. Jamoadagi personni boshqarish;

2. Moddiy-texnik ba'zani boshqarish;
3. Ichki va tashqo axborotlarni boshqarish;
4. Mablag'ni boshqarish;
5. Muhitni boshqarish;
6. Shaxslarni boshqarish;
7. Munosabatlarni boshqarish.

Rahbar shaxsining biografik jihatlarida uning jinsi, rahbar yoshidan keyingi o'rinda turadigan unga xos xususiyatga kiradi. Ayni payt ishlab chiqarishni samarali boshqarayotgan ayollarni ko'plab uchratish mumkin. Jins tafovutlarini tahlil etishda samaradan ko'ra boshqaruv uslubi haqida gapirsa, o'rinli bo'ladi. Erkak rahbar asosiy diqqat-e'tiborini ishlab chiqarish muammolariga taalluqli vazifalarga qaratsa, ayol rahbar ko'proq jamoaning ijtimoiy-psixologik jihatlariga, psixologik muhitni sog'lomlashtirishga qaratadi.

Rahbar shaxsning g'oyaviy siyosiy sifatlari:

- g'oyavoy siyosiy etiqod, fidoyilik siyosiy savodxonlik, ijtimoiy faollik, ijtimoiy burchni anglaganlik, ijtimoiy fikrlash tashkilotchilik tadbirkorlik .
- kasbiy ixtisosiy xislatlar:kasbiy etuklik, mutaxassislik, bilimdonlik,aqlning tanqiydiyliги, axborotlarni taxlil qilish, o'z fikrini ifodalay olish, ilmiy tadqiqod o'tkazishga moillik.
- hissiy va axloqiy fazilatlar: vatanparvarlik o'ziga va o'zgalarga talabchanlik o'zgalarni hurmat qilish, o'ziga ishonch ibolilik, halollik, adolatlilik,samimiylilik, beg'arazlik, vijdonlilik, xulq madaniyati va odobi, oqilona baxolash, o'zini kamol toptirish, bilimga chanqoqlik, zamonaviylik, o'zini tuta bilish, o'z manfaatini ustun qo'ymaslik, axloq qoidalariga rioxalashlik.
- maxsus qobuliyatları: iymon etiqodlilik, tashkilotchilik,nutqiy va nufuzli qobuliyat, sezgirlik, muomla o'rnatuvchanlik diqqatni yo'naltirish, aniqlik xolislik.
- tashkilotchilikdagi individual farqlar psixologik tanlovchanlik, amaliy
- aql zakovat psixologik takt, ijtimoiy g'ayratlilik, tanqidiylik, tashkilotchilikka uzuliksiz moyillik uyushqoqlik, bukulmas irodalilik va hokzo.

Raxbarlarni maxsus tayyorlamasdan turub, yuksak samaralarga erishib bo'lmaydi. Buning uchun eng avvalo hayotiy malakalarini shakillantiruvchi, komunikativ, shaxslararo munosabatlarga kirishishga o'rgatuvchi, qaror qabul qilishga, muommoni hal etishga undovchi, sog'lom turmush tarzini saqlovchi qobuliyatlarni rivojlantiruvchi va ularni yo'naltiruvchi, inson kamolatiga ko'maklashuvchi treninglarni qo'llash lozim.

Hozirgi davrda hamma rahbarlar ham o'z lavozimlarigaloyiq deb bo'lmaydi. SHuning uchun ular o'z qo'l ostidagi xodimlari faoliyatini oqilona tashkil qilmaydilar. Zaif tashkilotchilik qobuliyatiga ega bo'lganliklari tufaylishaxslararo munosabatlarda, ish yurtishda xizmatchilarga tasir ko'rsatishda nuqsonlarga yo'l qo'yadilar. Ularda shaxsiy qadriyatlarning puturidan ketganligi, shaxsiy maqsadning noaniqligi, o'zini o'zi kamol toptirishning izdan chiqganligi, muommolarni hal qilishning malakasining etishmasligi, ijodiy yondashuvda nuqsonlarning mavjudligi, odamlarga ta'sir o'tkaza

olmasligi, boshqaruv faoliyati xususiyatlarini tushunmasligi, rahbarlik layoqatining zaifligi jamoaning jipslashtirish o'quvining bo'shligi aql- idrok va farosatda sustkashligi ishbilarmonlikning kuchsizli illatlari uchraydi.

Yurtboshimizning ayollar o'tasida olib boriladigan ishlar shakillarini boyitish ularning ilmiy va madaniy saviyasini ko'rsatish kerak degan ko'rsatmalari juda ibratlidir;

Birinchidan bu hodisa ayollarga ehtirom, hurmat ramzini anglatsa,

ikkinchidan ularda faollik, fidoiylik, mag'rurlik, g'urur, shijoat, vatanparvarlik his-tuyg'ularini barqarorlashtiradi.

Uchinchidan ichki ruhiy zahiralarni ishga tushirishadi.

To'rtinchidan, ishbilarmonlik tadbirkorlik, rahbarlikka o'quvlilik safini kengaytiradi.

Ayollar ichidan rahbarlik lavozimiga tayinlash ijobiy samara beradi. Ayollar mehribon, dilkash ,demokrat tabiatli insonlar bo'lib hisoblanadilar. Ayol rahbarlar sinchkov, kuzatuvchan, sezgir omilkor, xislatlariga ega bo'ladilar. Ulardan milliy his - tuyg'u, milliy qiyofa mukammal mujassamlashgandir. Ba'zan zebu ziynatlarga ruju qilish hollari uchraydi, xolos, shu yuqorida aytilgan fikrlarning barchasi zamонавији rahbar qiyofasiga mos keladi.

Tadqiqotlarga ko'ra, ayollar yetakchilik usullari boshqacharoq: Ular ko'proq hamkorlik qilishadi va jamiyat fikriga qulqoq tutishadi. "Ayol kishi hokimiyatda bo'lsa, har bir olgan qarorida bolalari, nevaralari taqdirini o'ylaydi" - deydi Irlandiyaning sobiq prezidenti Meri Robinson. Bugun ayollar jahon iqtisodini yurgizishda katta kuchga aylanmoqda. Ayollar sarflayotgan 20 trillion dollardan ko'proq pul yil sayin ko'paymoqda. Jahonga dong'i ketgan siyosatchi ayollar ozmuncha emas. Margaret Tetcher, Hillari Clinton, Madlen Olbrayt, Kondoliza Rays, Tansu Chiller, Benazir Bhutto va Indira Gandhi kabi ismlarni bilmaydigan odam kam topiladi. Mana shunday keng ko'lamli o'zgarishlar bizda ham avj olmoqda. O'zbekistonning 40 yoshgacha bo'lgan 40 nafar rahbarlari reytingi e'lon qilindi. Ulardan faqat 4 nafari ayol. "Yuksalish" harakati davlat idoralarida faoliyat yuritayotgan istiqbolli rahbarlarning yangi Top-40 reytingini e'lon qildi. Ulardan Xalqaro arbitraj markazi direktori Diana Bayzakova, Yoshlar ishlari agentligi direktori o'rinosari Dilnozaxon Kattaxanova, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident, ijod va ixtisoslashgan maktablarni rivojlantirish agentligi direktori Xilola Umarovalar yuqori pog'onalarda turadi. Ayniqsa, bugun quyi palata deputatlarining 48 nafarini, senatorlarning esa 25 nafarini ayollar tashkil qilmoqda. Butun dunyoda parlament rahbarlarning 57 nafari xotin-qizlar. Ular orasida O'zbekiston ham bor. Yurtimizda biz uchun yaratib berilgan bundan qulay shart-sharoitlardan to'g'ri foydalanmay ilojimiz yo'q. Muhtaram Prezidentimiz aytganidek: "Ayollar ishlagan, rahbarlik qilgan joylarda tartib,adolat, halollik, madaniyat yuqori bo'lishi hech kimga sir emas. Shu bois har bir vazirlik, davlat kompaniyasi, bank va boshqa idoralarda bir-ikki yil ichida o'z tizimidagi ayollarni rahbarlikka o'qitib, kamida 1 nafar o'rinosarini ham ayollardan qo'yadi". Bu, albatta, ayollarga bo'lgan yuksak e'tiborning yana bir yorqin ko'rinishi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq-manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rirlari yaratish, mehnat hamda turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylanadi. "Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeyini yanada mustahkamlash - islohotlarimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolaveradi. Biz mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkoniyatlarni ishga solishimiz lozim." [6:250]. Biz, xotin-qizlarga bunday katta-katta imkoniyatlar yaratilib berilishining o'zi jamiyatimizda ayollarning ro'li muhimligidan dalolat beradi. Men aynan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti "Madaniyat va san'at muassasalarini tashkil etish hamda boshqarish" ta'lif yo'nalishiga o'qishga kirib, ta'lif olayotganidan juda baxtiyorman. Chunki, bu yerdagi muhit, talabalar, har yerdagi san'at isi insonga o'zgacha zavq beg'ishlaydi. Inson hayot yo'lida bir nimani bilmadim deya yonib o'tmasligi kerak. Hind faylasufi aytganidek, biz o'zimiz ko'rishni istagan o'zgarish bo'la olishimiz kerak. Orzular ro'yxatimda adolatli rahbar bo'lish degan o'rin ochilgan. Men o'zimdagi barcha savollarga yechim topdim va men endi buning qat'iy bir maqsadga aylanganligini bilaman. Maqsadim yo'lida qanchalik qiyin va o'gir bo'lmasin uni davom eta olishimga ishonch his etdim. Ya'ni, kelajakda ayol rahbarlarning safi yana bittaga ko'payishiga ishonchim komil.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. K.B.Axmedjanov. A.X.Xolov.Yosh rahbar kadrlarda samarali qaror qabul qilish ko'nikmasini shakllantirish.O'quv qo'llanma // Toshkent. -"Tafakkur qanoti", 2020. 96 bet
2. О. Тиллаев. Аёл лидер: Плюс ва минуслар нималардан иборат?. <https://kun.uz/news/2020/03/08/ayol-lider-plyus-va-minuslar-nimalardan-iborat>.
3. N.Nishanova. Davlat boshqaruvi tizimida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalalari. "Extremum-Press" bosmaxonasi. Toshkent-2013. 84 b.
4. Narzullo boymurodov —Rahbar psixologiyasi. T.yangi avlodi, 2007 yil
5. To'ychiyeva S. Boshqaruv texnologiyalari. O'quv qo'llanma // Toshkent. - "Navro'z" nashriyoti, 2020. 148 bet